

## Bakalavriatura yo'nalishlari

**5111020 - Kasb ta'lim (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash-tirish)**

**5111020 - Kasb ta'lim (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish)** bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilari qishloq xo'jaligi texnikalarini loyihalash va ulardan foydalanish metodlarini o'rganish, mashinalardagi ish jarayonini o'rganish, ulardan foydalanish ta'mirlash hamda takomillashtirish jarayonlarini o'zlashtirish, traktor mashinalar tizimlarida kechadigan fizik jarayonlarning matematik modellarini qo'llash, qishloq xo'jaligi mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash strategiyasini belgilash, qo'llash, texnik ekspluatatsiya prinsiplarini tuzish hamda loyihalash, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi kasb-xunar kollejlarda o'qituvchi lavozimlarida faoliyat yuritishlari mumkin.

**5430100 - "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash-tirish"**

**5430100 - "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish"** - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kelajakda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sub'ekti va ob'ektlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini boshqarish, turli mulkchilik shakldagi korxonalarni, qo'shma va xorijiy korxonalarni, tashqi iqtisodiy faoliyatni, xo'jalik faoliyatini yurituvchi korxonalarni tashkil etish va boshqarish vazifalarini bajaradigan rahbar hodimlar bo'lib yetishadi. Ular qishloq xo'jaligi tizimlari texnika boshqarmalari, Agrotexservis tizimlari boshqarmalari, qishloq xo'jaligi texnikalari tashkilotlari, qishloq xo'jaligi loyiha tashkilotlarida rahbar hodim bo'lib ishlay oladilar.

**5430300 - "Qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalari texnik servisi"**

**5430300 - "Qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalari texnik servisi"** bakalavriat ta'lim yunalishi bitiruvchilari qishloq va suv xo'jaligi korxonalar va tashkilotlarida, jumladan qishloq va suv vazirligi, viloyat va tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bo'limlari, agrotexnologiya tizimi MTP va agrotexservis boshqarmasi, suv iste'molchilari uyushmalari, qishloq va suv xo'jaligi boshqarma tashkilotlarida bosh muhandis va injener mexanik lavozimlarida, shuningdek, ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy hodim lavozimlarida faoliyat yuritishlari mumkin.